

HOZIRGI O`ZBEK NASRIDA “ ADASHGAN” ODAM OBRAZINING BADIY TALQINI (“SAROB” ROMANI MISOLIDA)

Nasiba Xo`janova

Termiz davlat universiteti

Adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyoti) magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi Abdulla Qahhorning Sarob romani tahlil qilingan, olimlarning roman haqidagi tanqidiy fikrlari bayon qilingan .Bundan tashqari, roman prototiplari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'z: Sarob, Munisxon, Saidiy, davr fojiasi, tanqid, roman

O`zbek adabiyotida eng ko`p bahsga sabab bo`lgan asar bu Abdulla Qahhorning “ Sarob” romanidir. Asar o`tgan asrning 20 – yillari oxirida yaratilgan bo`lsa ham u haqidagi murossasiz fikrlar , keskin tanqidlar hali ham davom etmoqda.Roman shu bugunga qadar olti marotaba nashr etildi,shundan uch nashri muallif hayotligida chop etildi va dastlabki nashrlaridagi ba`zi qismlar keyingi nashrlariga kiritilmagan . Roman yaratilgan paytidan boshlab tanqidchilarning nazariga tushdi. Abdulla Qahhor “ Sarob” dan boshlab to oxirgi asarigacha juda ko`p tanqidlarga uchradi. Bu haqida Ozod Sharafiddinov shunday yozadi : “ Hozir adibning butun umri davomida tanqiddan yegan dakkilarini o`ylar ekanman , uning ro`paradan ham , orqavarotdan ham qilgan hujumlarini daf etishga ko`p kuch sarflaganini tasavvur qilar ekanman , bu odamning sabotiga , tog`day bardoshiga qoyil qolaman “ [1]. Adabiy asarga baho berganda biz doimo zamon talabi va yozuvchining g`oyaviy – badiiy niyatiga e`tibor qaratamiz. “ Sarob “ qoralanib , yigirma yildan ortiq ta`qiqda yurdi . Romanga asarning bosh qahramoni bo`lmish millatchi Saidiy kitobxonda naftat uyg`otmaydi , aksincha , unda xayrixohlik qo`zg`aydi “ [2] deb urushgan edilar . Ko`pchilik adabiyotshunoslar “ Sarob “ ni siyosat asari sifatida qabul qildi. Bunga

Abdulla Qahhorning “ Bir xatga javob”idagi quyidagi so`zlari sabab bo`ldi : “ 30- yillarning boshlarida taqdir meni burjua millatchilariga ro`para qildi , bular mening nafrat va g`azabimni qo`zg`atdi , ya`ni muvozanatimni buzdi . Men o`zimda uyg`ongan bu tuyg`uni boshqalarda ham uyg`otishga yengib bo`lmas xohish sezdim. Buning natijasi bo`lib “ Sarob “ romani vujudga keldi “ .

[3] Ko`pchilik adabiyotshunoslar muallifning aynan shu so`zlariga ishora qilib asarning ko`proq siyosiy tomoniga urg`u beradi. Ammo A. Qahhor suhbatlarining birida shunday degan edi : “ Sarob “yozilgan , kitob hoida chiqqan paytlari sochimda birorta ham oq tola yo`q edi : demagog , johil tanqidchilarning betinim to`qmoqlari tufayli romanning ikkinchi nashriga qadar sochimda birorta ham qora tola qolmadi .Tanqid shu paytga qadar “ Sarob”dan nuqul siyosat izladi . Romandagi odamlarning

dardi – dunyosi , o'hu –zorini eshitadigan bir azamat topilmadi “ . Albatta , “ Sarob “ keng mavzuli roman , har qanday realistic asar voqealari muayyan tarixiy davrda , aniq tarixiy makonda kechadi, asar bosh qahramoni Saidiy timsoli misolida Qahhor 20-yillarning 2- yarmidagi o'zbek xalqi hayotining siyosiy , maishiy , iqtisodiy va ma'naviy holatini yaqqol aks ettirgan. Adabiyotshunos N. Karimov bu roman haqida fikr bildirib “ Yosh bo'lishiga qaramasdan , bunday katta romanni yaratishi biroz shubhali “ deb yozadi [4]. Chunki bu asarni Qahhor yigirma besh yoshlarida yozgan.

Asar bosh qahramoni Saidiy orqali Qahhor adashganlarning og'ir fojiasini ko'rsatadi. Adashganlar va o'z safdoshlaridan ajralganlar masalasi adabiyotda juda muhim masala. Odatda xudbin kishilar ko'pchilikdan ajralgan bo'ladi. Qahhor asar boshidayoq bizga Saidiy ruhiyatidagi xudbinlikni ko'rsatadi. Buni biz Saidiyning Munisxonni ilk uchratganda hayolidan kechayotgan fikrlardan bilib olamiz . U shunday o'ylaydi : “ Shu qizning boshiga bir falokat tushsa-da, qutqaradigan kishi yagona men bo'lsam “ . Bu so'zlar Saidiy obrazining asosiy mazmunini belgilaydi . Ammo Qahhor Saidiy shaxsidagi xudbinlikning paydo bo'lish tarixini tahlil qilib o'tirmaydi . Yozuvchi inson xarakterining shakllanishida muhit katta rol o'ynaydi deb hisoblaydi. Misol uchun Saidiy boshqacharoq muhitga tushganida , ehtimol o'rtamiyona bir yozuvchi yoki jamiyatga kerakli bir shaxs bo'lishi mumkin edi. Biroq bunday bo'lmadi. Saidiy shaxsiyatidagi xudbinlik , ikkilanishlar va oxirida millatchilar tomoniga o'tib olishi ya'ni Salimxon , Abbosxonlar uni o'z tomoniga og'dirib olishi , o'zida shaxsiy fikrning bo'lmagani uning fojiasi edi . Ammo biz Saidiyni maslaksizlik yoki e'tiqodsizlikda ayblay olmaymiz. Murodxo'ja domla bilan suhbatida u shunday deydi : “Adiblik mening kasbim bo'lishiga ishonaman , domla ...Arximed :”Menga tayanch nuqtasini beringiz , richagim bilan yerni ko'taraman “ , degan . Men ham yerni ko'taraman , domla , menga ham tayanch nuqtasi kerak , bu – sharoit “ [5] deydi . Na turmushda , na siyosiy harakatda , na ijodda baxtli bo'lish unga nasib etmadi . Uning barcha ishonganlari sarob edi . U uchun oxirgi ilinch Munisxon edi , ammo u ham o'z joniga qasd qilgach , Saidiy butunlay o'z muvozanatini yo'qotdi . Saidiy o'limini ham muallif o'zgacha yakunlaydi . Saidiy qilmoqchi bo'lgan eng oxirgi harakat ham amalga oshmadi . U baxtli kishilarni olib kelayotgan poezni ag'darib o'lmoqchi edi , biroq bu poezd baxtli odamlarni olib kelayotgan poezd emas , balki poezd ichidagilar odam emas , chorva mollari edi .U qochib ketayotib qor va bo'ronlarga ko'milib hushidan ketadi , shu tariqa uning hayoti yakun topdi . Uning hayot yo'liga nazar tashlab , biz Saidiydan naftatlanmaymiz . Aslini olganda , Saidiy oddiy , o'rtamiyona shaxs edi , Hayot uni tarix oqimining zid tomoniga ro'para qildi , unda qanchadan – qancha ruhiy ikkilanishlar bo'ldi. Afsuski , u noto'g'ri yo'lni tanladi va jiddiy adashdi. Adabiyotshunoslar fikricha , o'zbek adabiyoti tarixida Saidiy tipidagi obraz hali yaratilmagan , ya'ni mutlaqo yangi obraz. Adabiyotshunos Marxabo Qo'chqorova “ Sarob”ni “ psixologik roman” janrining ilk namunasi deb yozadi . Chunki asarda

adashgan Saidiyning og`ir kechmishi , ruhiy iztiroblari badiiy taftish qilingan. Bundan tashqari asarda Saidiy xarakterini ochishda Ehson , Shafrin, Munisxon, Tesha ,Salimxon, Soraxon , Murodxo`ja domla kabi obrazlar ham juda hayotiy tasvirlangan. Asardagi eng xarakterli obrazlardan biri bu Murodxo`ja domla obrazidir . Bu qahramon qaysidir jihatlari bilan bizga “ Qutlug` qon” dagi Mirzakarimboyni eslatadi. Asar boshidayoq biz Murodxo`ja domlaning juda ham razil , mol – dunyoga o`ch , boyluk uchun hatto qizining baxtini ham sotib yuboradigan shaxs va Saidiyning fojiasiga sabab bo`lganlardan biri ekanligini ko`ramiz.

Bugungi kun munaqqidlari asar qahramonlari prototiplari haqida ham juda xilma –xil fikrlarni aytishadi. Masalan , M. Qo`chqorova Saidiy obrazining prototipi haqida to`xtalib shunday deydi : “Saidiyning institutga kirishi , do`stlar orttirishi (Ehson , Shafrin , Munisxon , Tesha ...) badiiy adabiyotlar bilan oshno tutinishi , o`zining ilk hikoyalarini gazetalarga jo`natishi , ich – ichida “O`zbek adabiyotining iftixoriga “ aylanishni orzu qilayotgan obraz negadir bizga Abdulla Qahhorning o`zini eslataveradi “. Yoki Saidiyning do`sti Ehson obrazining hayotdagi prototipi adibning maktabdagi do`sti Muhammadjon Qulmatov ekanligini aytadi .

Xulosa qilib , adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulning “ Sarob “ romani haqidagi quyidagi fikrlarini keltirmoqchiman: “ Kecha aytilmagan bo`lsa , endi bugun , keling , salbiy deb ataganimiz , dushman deb bilganimiz “ Sarob”dagi qahramonlarni oqlamasak ham , qoralamaylik , maqtamasak hamki , tahqirlamaylik . Ularni tushunmoqqa harakat qilaylik. Mulkidan ajralish, erkini boy berish , ona tuprog`ida sig`indi bo`lib , qo`rqib , begona odamday yashash qandoq azob , qandoq kulfat bu! Bugungi ba`zi mulkdor va boylarning fikr darajasi , maqsad –muddaosini ham ko`rib turibmiz-ku! Ular yuzlab salimxon va muxtorxonlarni dog`da qoldirishi , diyonat , insof va saviyada ulardan yuz chandon tuban turishiga nima deysiz! ” [6] Tarixning muayyan bir davrini aks ettirgan “ Sarob”romani bugun ham o`z ahamiyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Haqqul . Abdulla Qahhor jasorati . Esse .” Tafakkur” jurnali 2007.(15-b)
2. O. Sharafiddinov . Tanlangan asarlar . “ Sharq “ nashriyoti Toshkent -2019. (7-b)
3. A. Qahhor . Asarlar .Besh jildlik , beshinchi jild (256-b)
4. M. Qo`chqorova . “Sarob”ning matnosti sirlari.17.09.202023.09.2020Muallif Ziyouz.uz
5. I. Haqqul .Abdulla Qahhor jasorati . Esse . “Tafakkur” jurnali 2007. (13-b)
6. I.Haqqul . Abdulla Qahhor jasorati . Esse. “ Tafakkur “ jurnali 2007. (13-b)